

**XALQ DEPUTATLARI
BERUNIY TUMAN
KENGASHINING
QARORI**



**XALIQ DEPUTATLARI
BERUNIY RAYONLIQ
KEÑESINIÑ
QARARÍ**

2022 - yil 19 - dekabr

VI-58-132-13-182-K/22

Beruniy tuman hokimligi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-sonli qarorining 19-bandi ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Beruniy tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri axboroti to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-sonli qarorining 19-bandi ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Beruniy tumanidagi Xalq qabulxonasi mudirining axborotini tinglab, Xalq deputatlari Beruniy tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-31-sonli qarorining 19-bandi ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Beruniy tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri v.v.b. (Atadjanov)ning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining o'rinoslarli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Beruniy tumanidagi Xalq qabulxonasi mudiri, mutasaddi davlat tashkilotlari bilan birgalikda:

- sektorlar rahbarlari bilan bevosita tuman hududlariga chiqqan holda hokim yordamchilari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni tizimli o'riganish, ularning faoliyatida uchrayotgan muammolarni bartaraf qilish choralarini ko'rish;

- mahallalarda hokim yordamchilari tomonidan aniqlangan aholi muammolarini ijobiy hal qilish choralarini ko'rish;

- hokim yordamchilariga belgilangan yo'nalishlar bo'yicha bank kreditlari va subsidiyalar ajratish uchun mas'ul bo'lgan idora va tashkilotlarga o'z tavsiyasini berishda, har bir loyihaning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini chuqur o'riganishni tashkil etish;

- ajratilayotgan resurslardan samarali foydalanish yuzasidan doimiy monitoringni amalga oshirish;

- mahallalar kesimida hokim yordamchilari tomonidan o'rganishlar natijasida tumanning ijtimoiy-iqtisodiy holatini, jumladan, aholining bandlik darajasini, oilalarning daromad manbalarini, tomorqa yerlaridan foydalanish holatini hamda daromadli mehnatga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarini tahlil qilish;

- hokim yordamchilari tomonidan mahallalarda aniqlangan muammolarni umumlashtirib tahlil qilgan holda ularni hal etish bo'yicha tuman sektor rahbarlariga hamda tegishliligiga ko'ra idora va tashkilotlarga

yetkazish va monitoringini olib borish;

- murojaatlar sonining asossiz ko‘payishiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish, ular tomonidan ko‘tarilgan har bir masalaning o‘z yechimiga qaratilgan aniq zaruriy tadbirlarni belgilash;

- har bir muddati buzilgan murojaatlarga yo‘l qo‘ygan rahbar xodimlar qat’iy choralar ko‘rilishi haqida rasman ogohlantirilsin.

3. Tumandagi barcha ovul va mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari har chorakda o‘z mahallasi hududidagi dolzarb muammolar to‘g‘risidagi ma'lumotlarni sektor rahbarlari va Xalq qabulxonasiga taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashining “Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha” doimiy komissiyasi raisi B.Kazakov zimmasiga yuklatilsin.

5. Ushbu qaror tuman “Xalq minbari” gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

Kengash raisi



A.Saparbayev